

INSON ONGIGA OID AYRIM TUSHUNCHALARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI SHARHI

Anorboyev Hayitboy Eshboy o'g'li

Ilmiy rahbar:

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Yoshlar psixologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi

Erkaboyeva O'lmasoy Kubay qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, "Psixologiya" fakulteti
"Yoshlar psixologiyasi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson ongining mohiyatiga doir ayrim ilmiy qarashlar hamda psixoanalitik vositalar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, ong, tushuncha, o'rganish, xossa.

KIRISH

Ong inson tomonidan voqelikni aks ettirishning yuksak darajasi bo'lib hisoblanadi. Inson ongining birlamchi psixologik xossasi o'zini bilish subyekt sifatida his etish, mavjud va tasavvurdagi voqelikni xayolan tasvirlash layoqati, shaxsiy psixik va xulq-atvor holatlarini nazorat qilish, ularni boshqara olish, atrofdagi reallikni tasavvurlar shaklida ko'rish va idrok qilish layoqati kabilarni o'z ichiga oladi. O'zini bilish subyekt sifatida his etish insonning olamni o'rganish va bilishga, ya'ni, olam haqida u yoki bu darajada aniq bilimlarni egallashga tayyor va layoqatli bu olamdan bo'lak qilingan mavjudot sifatida anglashini bildiradi. Ongsizlik (uyqu, gipnoz, kasallik va sh.o'.) holatlarida bunday layoqat yo'qoladi.

Xayolan tasavvur qilish va voqelikni tasvirlash – ongning ikkinchi muhim psixologik xossasi. U, ong kabi yaxlitligicha, iroda bilan uzviy bog'langan. Odatda, tasavvurlarni ongli boshqarish va tasavvur qilish haqida ularning inson iroda kuchi yordamida yuzaga kelgan va o'zgarishlarga uchragan holatlarda so'z yuritiladi. Ushbu holatda inson ixtiyoriy, ya'ni, ongli ravishda atrofni idrok qilishdan, taalluqli bo'lmagan xayollardan chalg'igan holda, o'z diqqatini qandaydir g'oya, tasavvur, xotira va shu kabilarda jamlab, o'z tasavvurida ushbu damda bevosita ko'rolmaganlarini aks ettiradi va rivojlantiradi.

Ong uzviy ravishda nutq bilan bog'langan bo'lib, o'zining yuksak shakllarida usiz mavjud bo'la olmaydi. Ongli aks ettirish sezgilar va idrokdan, tasavvurlar va xotiradan

farqli o'laroq, qator o'ziga xos xossalari bilan ajralib turadi. Ulardan biri – tasavvur etilayotganlarning anglanganligi, ya'ni, ularning so'z-tushunchaviy ma'nodorligi, inson madaniyati bilan bog'liq holda ma'lum mohiyatga ega ekanligi.

Ongning keyingi xossasi ongda jism, voqea va hodisalarning faqat asosiy tub mohiyatga ega bo'lganlarining aks ettirishidir.

Inson ongining to'rtinchi xossasi – bu uning kommunikatsiyaga, ya'ni, ma'lum odamning o'zi bilgan ma'lumotlarni til va boshqa belgi tizimlari yordamida boshqalarga yetkaza olish layoqati. Insonlar bir-biri bilan turli axborotlar bilan almashinuv jarayonida asosiy xabarni ajratib oladilar. SHu tarzda abstraktlashtirish, ya'ni, ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ikkinchi darajalilaridan ayirib olish sodir bo'ladi.

Inson tabiat muhitiga oddiy holatda moslashibgina qolmasdan, ongli ravishda mehnat qurollari yasagan holda, uni o'ziga bo'ysundirishga intiladi. SHu asnoda inson turmush tarzi ham o'zgarib boradi. Atrofdagi tabiatni o'zgartirish maqsadida mehnat qurollari yasash qobiliyati ongli ravishda mehnat qilish layoqati mavjudligini bildiradi. **Mehnat** – insonni yashash sharoitlari bilan ta'minlash, shuningdek, moddiy va ma'naviy boylik yaratish maqsadida tabiatga ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdan iborat bo'lgan, faqat inson uchun xos maxsus faoliyat turi. SHunday qilib, mehnat faoliyati inson ongining ahamiyatga molik bo'lgan xossasidir.

Inson ongi quyidagi muhim va ahamiyatli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Inson o'z xulq-atvoriga tegishli bo'lgan irsiy va tajribada orttirilgan shakllari bilan bir qatorda, so'z orqali yetkaziladigan, insoniyat tajribasi ko'rinishidagi atrof-olamda o'z yo'nalishini belgilab olishning yangi vositasi – **bilimlarga** ega.

2. Inson **ongi voqelikning ahamiyatli tomonlarini, qonuniyatga ega bo'lgan aloqalarini** aks ettiradi. Ong – bu insonning olamga uning obyektiv qonuniyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'lgan holdagi munosabati. Bu munosabat hayotiy muammolarni sinov va xatolar metodi yordamida emas, balki, atrofdagi muhitning turli tomonlari o'rtasida aniq, qonuniyatli aloqalarni o'rnatish asosida hal etish imkonini beradi.

3. **Ong faoliyat maqsadining anglanganligi**, kelajakda sodir bo'ladigan hodisalarni tushunchalar orqali modellashtirish, umuminsoniy tushunchalar, bilimlar tizimida harakatlarining natijalarini oldindan sezish kabi xususiyatlarga ega. Inson oldindan ko'ra oladi, o'z harakatlaridan kutilayotgan natijalarni rejalashtiradi, ularga erishishning muvofiq usul va vositalarini tanlaydi.

4. **Shaxs ongi ijtimoiy ong** bilan belgilanadi. ijtimoiy ongning to'rt xil shakli mavjud: **fan** – ilmiy bilimlar, tasavvurlar, konseptsiyalar va dunyoqarashlar yo'nalishlari tizimi; ijtimoiy ongning **jamiyat qonunlari sohasi** – ma'lum jamiyatning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy va huquqiy qadriyatlar va qoidalar

tizimi; **san'at** – voqelikni tasviriy vositalar orqali ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning maxsus turi, inson turmush tarzining turli tomonlarini tasviriy modellashtirish; din, e'tiqod – o'zida yuksak sifatlarni mujassamlashtirgan g'ayritabiiy kuchlarga ishonish, e'tiqodli odamlarning ruhiy tayanchi.

Ijtimoiy ongning barcha shakllari birgalikda g'oyaviylikni – insonlarning voqelikka va bir-birlariga bo'lgan munosabatni, jamiyat hayotiy faoliyatini boshqaruvchi tub negizli qadriyatlar, asosiy g'oyalar tizimini shakllantiradi.

5. Ong o'zlikni anglash, shaxsiy refleks bilan bog'liq. Inson o'z atrofidagi olamni anglashda o'zini u bilan taqqoslaydi. **O'zlikni anglash** – bu insonning olamga nisbatan ahamiyatga molik hamda zarur, shuningdek, shaxsiy munosabatlar tizimi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Inson haqidagi psixoanalitik tasavvur XX asr boshlarida avstriyalik psixiatr olim Zigmund Freyd tomonidan yaratildi va o'sha davr psixiatriyasi va yevropa madaniyatida inqilobiy o'zgarish bo'ldi. Bu ta'limot insoniyat faoliyatini ongsizlik va onglilik sohalariga bo'lib, bu ikki sohada bir-biri bilan kesishmaydigan holda xarakterlanib, har ikki sohaning o'ziga yarasha tuzilmasi va vazifasi borligi asosida isbotlanib berildi. Bunda ustunlik ongsizlik tomoniga berildi, chunki, Freyd fikricha, u inson harakatining botiniy sababi vazifasini bajaradi, shu orqali inson psixikasi tuziladi. Eng umumiy ma'noda, ongsizlik Freyd tomonidan, nafaqat inson psixikasini rivoji nuqtai-nazaridan talqin qilindi, balki bu hodisa insonning mazmuniy, asliy, tabiiy, ijtimoiy, madaniy, tarixiy hayotiga ham tatbiq qilindi. Ongsizlik orqali, hattoki tarix rivojini ham ochib berishga harakat qilindi, nafaqat tarix, balki sivilizatsiya masalalariga ham tatbiq qilindi.

XX asr boshlarida psixiatr olim Zigmund Freyd tomonidan ongsizlik konsepsiyasi ishlab chiqildi. Freyd tomonidan yaratilgan psixoanaliz ta'limoti falsafa va psixologiya fanlarining tutashgan, chegaradosh qismida paydo bo'ldi va ong konsepsiyasiga yangicha talqin berdi. Bu talqin oldingi ratsional ong konsepsiyasidan katta farq qiladi.

Freyd yashagan davrga kelib antropogenez fani, hususan, Morgan, Charlz Darvin va boshqa olimlarning tadqiqotlari ibtidoiy qabilalardagi jinsiy aloqalarni har taraflama o'rgana boshladi.

Freydning fikricha, inson tabiatida ikki kuch hukmronidir. Birinchisi barcha narsalarni vayron etish tanatos ruhi; ikkinchisi esa, hayotga, hursandchilikka intilish kuchidir. Birinchi kuch inson psixikasida nikrofiliya jarayoniga olib keladi. Nikrofillarga sadomazoxizm hamda barchao'lik shakllarga qiziqish, o'limni kuylash, hayotga va hayotiy jo'shqinlikka nafrat bilan qarash xosdir.

Ikkinchi kuch inson psixikasida ko'prok rivojlangan bo'lsa, ularni gimnafil, hayotni sevuvchilar deb atashadi. Ularga hayotiy jo'shqinlik va optimizm xosdir. Sof holatda hayotda bu ikkilik kam uchraydi. Ular asosan aralashgan holda jamiyatda hayot

kechiradi. Bunday psixik xususiyatlar ijtimoiy jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ispan faylasufi Unamuno fashizmni nikrofiliya deb atagan. Fashistlar psixologiyasiga inson hayotiga jirkanch qarash, sadizm, keng miqyosidagi qirg'inlar, genotsid xosdir.

Prof. M.Xolbekov ta'kidlashicha: "XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30-yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarning birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi. Jahon adabiyoti tarixida "yo'qotilgan avlod" (lost generation) (G.Stayn) nomini olgan bu avlod namoyandalari – Uilyam Folkner (William Faulkner, 1897-1962) Ernest Xeminguey (Ernest Hemingway, 1899-1961), Frensis Skott Fitsjerald (Francis Scott Fitzgerald, 1896-1940), Jon Dos Passos (John Dos Passos, 1896-1970), Richard Oldington (Richard Aldington, 1892-1962), Erix Mariya Remark (Erich Maria Remarque, 1898-1970), Anri Barbyus (Henri Barbusse, 1873-1935) va boshqalar G'arb adabiyotining keyingi ravnaqiga ulkan hissa qo'shdilar". Shu ma'noda, o'zbek adabiyotiga kirib kelgan bu kabi oqim namoyandalari asarlarining fazilatlarida san'atning benihoya rolini yangicha ifodada ifodalashni tushunish mumkin. G'arb adabiyotining mazkur namoyandalari asarlari qaysidir ma'noda X.Do'stmuhammad, A.A'zam, N.Eshonqul, U.Hamdani, I.Sulton, Sh.Hamro, T.Rustam, S.Vafo, A.Yo'ldoshev kabi ijodkorlar poetik izlanishlarida bo'y ko'rsata boshladi. Natijada jamiyat hayotidagi mavjud tartibotlar parchalangach – istiqlol davriga kelib, "qora bo'yoq"larda zulmatni yorib chiqayotgan bir qatim nurdek adabiy jamoatchilikda bahs-munozara uyg'onishiga ta'sir ko'rsatdi.

O'zining psixoanalitik qarashlarini Freyd «libido» ta'limoti orqali tahlil qildi.

Z.Freyd «Ongsizlik ruhiyati» nomli asarida onglilik va ongsizlik holatlarini tahlil qilib beradi. Uning fikricha, bu holatlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki ongsizlikning ba'zi bir elementlari ongli holatda uchrab turadi. XX asrda ong konsepsiyasiga ratsional yondoshuvda Freydning psixoanaliz qarashlari tufayli o'zgarish sodir bo'ldi.

Demak Freydning fikricha, ongdan siqib chiqarilgan hamma narsa ongsizlikdir, lekin ongsizlik siqib chiqarilgan hodisalar bilan aynan bir narsa emas [1]. Jumladan, ongsizlikning quyi sohalari bir muncha mazmunliroqdir. Ko'pgina ilmiy tilda tushuntirib bo'lmaydigan hodisalar, ongsizlik sohasiga tushib qolgandir. Shuning uchun ham Freydning ta'kidlashicha, ongsizlikni tatqiq qilishdan voz kechmaslik zarur.

Freyd shunday masalani o'rta tashlaydi, ya'ni qanday qilib ongsizlikni onglilik darajasiga ko'tarish mumkin? Olim fikricha, onglilik bu hodisalarning yuzaki qismidir

[2]. Bizning butun tashqi, ichkitaassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruxiy holatlar bilan bog‘liqdir. Qachonki ular ong bilan bog‘lansa, taassurot hissiyoti anglanadi [3]. Agar ular ong bilan bog‘lanmasdan, yopib qo‘yilsa, unda ongsizlikka aylanadi. Ong oldi sohasi taassurot va hissiyotlarga ta‘sir etmaydi. Ular yoki ongli bo‘ladi, yoki ongsiz bo‘ladi. Hissiy qabul qilinganda, so‘z shakliga kirgandan so‘ng onglilik anglanadi. Demak onglilikning asosiy qismi bu tafakkurlash mexanizmidir, ya‘ni u so‘z orqali namoyon bo‘ladi.

“Men” va “U” ni shunday tushungan Freyd uchun individuum anglanmagan ongsizlik sifatida namoyon buladi, uning ustida onglilik yotadi, bu onglilikning markazi “Men” dir.

“Men” va “U” ni obrazli ta‘riflab, Freyd ularni otga va chavandozga qiyoslaydi [5]. Ot — bu egarlanmagan xirslar, tuyg‘ular, ongsizlik sohasidir, u chavandoz nazoratidan chiqib ketishga talpinadi. «Men» — bu chavandozdir, u butun kuchini ishga solib otni o‘ziga bo‘ysindirishga harakat qiladi [6]. Lekin ot shunday yovvoyiki, chavandoz uni ba‘zida egarlay olmaydi.

“Men” tushunchasidan tashqari, yana “Oliy Men” ham mavjud, deydi Freyd. “Men” da “Oliy Men” bo‘lish xohishi mavjud. “Men” “U” ga murojaat qilib, “U” ning baxti bilan o‘zini aynanlashtiradi. “Men” libido obyektini, Narsiss libidosi bilan almashtiradi, ya‘ni “Men” ongsiz xirsini

“Men” ning o‘ziga qaratib yo‘naltiradi. “Men” yagona muhabbat obyektiga aylanishni istaydi. Ongsiz “Men” ning hamma xirslari o‘ziga qaratilgandir. Natijada “Men” o‘zini yaxlitligini yo‘qotadi, ko‘pgina “Men” chalarga bo‘linib ketadi. Freyd fikricha, “Men”ning ideali, xirs obyektiga o‘xshashni xohlashdir. Bu obyektlar ota yoki ona xam bo‘lishi mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, Freydning nazariyasida ong tuzilmasida onglilik va ongsizlik qatlamlari bir biriga bog‘liq, ong faqat aql va xissiyotlardan emas balki ongsizlik ruhiy holatlaridan ham tashkil topgan. Demak Freyd ta‘limotida ong murakkab ruhiy tuzilmadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. G‘arb falsafasi., K. Nazarov tahriri ostida. – Tashkent: Shark, 2014. – 134 b.
2. G‘arb falsafasi, muharriri Q. Nazarov – T.: Shark, 2014. – 120 b.
3. Psixologiya tarixi. – K.: Ros.Gos. Univ., 2015. – 64 b.
4. Leybin V.M. Psixoanaliz va neofreyd falsafasi. – M.: Politizdat, 2017. – 106 b.
5. G‘arb falsafasi, muharriri Q. Nazarov – T.: Shark, 2014. – 134 b.
6. Jabborov Ə. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi. “Nasaf”. 2019. -B.146.